

## 100 ICHIDA SONLARNI XONADAN O`TIB QO`SHIH USULLARI

*Samarqand viloyat nurobod tumani*

*Maktabgacha va maktab ta'limi tassarufidagi 70-umumta 'lim maktabi  
boshlang`ich sinfo `qituvchisi*

***Yuldasheva Sharrofatxon Kobilovna***

**Fan nomi: Matematika**

***Mavzu: 100 ichida sonlarni xonadan o`tib qo`shih usullari***

### **. Darsning maqsad**

**Maqsadlar:ta'limiyo**:O'quvchilar bilan o'nliklar haqida suhbatlashish , tushuncha hosil qilish, o'nlik ,birlik tushunchasini berish va misol- masalalar yechish malakasini mustahkamlash.

**Tarbiyaviy**:O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo'shish .Ajdodlarimiz buyuk merosi bilan o'quvchilarni tanishtirish.

**Rivojlantiruvchi**:O'quvchilarda matematik nutq, xotira, tafakkurni, yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilarning faolligini oshirish, olingan bilimlarini hayot bilan bog'lash

Tayanch tushunchalar:Qo`shish hadlari jadvali.

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha mazmuni: 100 ichida qo`shish haqida tushunchalar berish, qo`shishning xona hadlarini tushuntirish, ularga doir misol va masalalar yechish

Metodlar: Suhbat, mustaqil ishlash.

Jihozlar: Darslik, chizg'ich, mavzuga doir plakatlar,kompyuter,proektop

Nazorat: Uy vazifasini tekshirish, og‘zaki so‘rov, doskada va mustaqil ravishda misol, masalalarini yechish.

Baholash: Uy vazifalarining bajarilishi, mustaqil ravishda misol, masalalarini yechishlariga qarab o‘quvchilar baholanadi.

Kutilayotgan natijalar: 100 ichida qo`shishning xona birliklari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo’lish.

### **Darsning borishi:**

#### **I.Tashkiliy qism:**

Darsga hozirlik ko’rish.

Darsning maqsadini aytish.Navbatchi axboroti tinglanadi. Dars shiori aytildi.

#### **II. O’tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Sinf uch guruhga bo`linadi. Daftarlari yig`ib olinadi.



Uyga berilgan mavzuni aniqlab, tekshirib baholayman.

Sizlar bilan gul terish sayliga boramiz.Gul terganmisiz?Qani kim birinchi gul teradi? Bu gullar oddiy gulmas, gul yaproqlarida uyda ishlab kelgan misollardan namunalar bor, kim guldagi misollarni yechib bersa o`sha o`quvchi taqdirlanadi.

$23+31=?$

$51+28=?$

$42+33=?$

$24+51=?$

$45+62=?$

$16+14=?$

$25+24=?$

$42+15=?$

Gullar orqasida uyga vazifada berilgan misollar yozilgan bo`ladi. Qolgan o`quvchilardan uyga berilgan bo`yicha savol javob o`tiladi.


### III.Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzuning 1- topshirig`I slayd orqali ekranga ko`rsatiladi.

O`quvchilarga qo`shish hadlarining xona birliklari tushunturiladi.



#### 1. Hisoblashlar qanday bajarilgan?



$26 + 28 =$	<input type="text"/>			
20	6	20	8	<input type="text"/>
$20 + 20 =$	<input type="text"/>			
6	+	8	<input type="text"/>	
$40 + 14 =$	<input type="text"/>			

26 soni qanday xona birliklaridan tashkil topgan.

20 bu 2 o`nlik, 6 birlik

28 sonichi ? 2 o`nlik, 8 birlik

2-misol.Sonlarni o`nlik va birlikka ajratib hisoblaymiz.

$$44+17=$$

$$63+19=$$

$$78+13=$$

Avval 10 liklar qo`shiladi,songra esa birliklar qo`shiladi.

$$4 \text{ o`nlik} + 1 \text{ o`nlik} = 5 \text{ o`nlik}$$

$$4 \text{ birlik} + 7 \text{ birlik} = 11$$

$$5 \text{ o`nlik} + 11 = 51$$

$$6 \text{ o`nlik} + 1 \text{ o`nlik} = 7 \text{ o`nlik}$$

$$3 \text{ birlik} + 9 \text{ birlik} = 12$$

$$7 \text{ o`nlik} + 12 = 82$$

$$7 \text{ o`nlik} + 1 \text{ o`nlik} = 8 \text{ o`nlik}$$

$$8 \text{ birlik} + 3 \text{ birlik} = 11$$

$$8 \text{ o`nlik} + 11 = 91$$

**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.(Barcha bolalar qatnashadilar)**

3-topshiriq. Slayd orqali ko`rsatiladi.



#### 3. Har bir parrandaning massasini topamiz.



Oarrandalar haqida savol-javob o`tkaziladi.Pallali tarozi haqida ha tushuncha beriladi.

Shu o`rinda iqtisodiy bilimlar beriladi.

Qisqa shart tuziladi.

- |    |                       |                    |  |
|----|-----------------------|--------------------|--|
| 1. | $2+5=7 \text{ (kg)}$  | $7-1=6(\text{kg})$ | demak g`oz 6kg                         |
| 2. | $2+2+6=10(\text{kg})$ | $2+5=7(\text{kg})$ | $10-7=3(\text{kg})$ demak tovuq<br>3kg |

Xuddi sho` o`rinda Yaqinlashib kelayotgan ustoz-murabbiylar bayrami haqida suhbatlashiladi.

4-topshiriq.taqqoslash

$$37+19 * 62 \quad 53-22 * 71 \quad 84 * 92-31$$

Ushbu taqqoslashni yechishda har guruhdan bittadan o`quvchi chiqariladi.Doskaga bajariladi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Mavzuni mustahkamlash qismida tabiatga yordam ko`rsatiladi.

Qafasdagи qushlarga yordam beramiz.Ularni tabiat qo`yniga qo`yib yuboramiz.Buning uchun esa qushlar qanotidagi savollarga javob beriladi.



Qushlar haqida she`rlar so`raladi.

Avvaldan tayyorlangan qog`ozlar tarqatiladi. Bolalar daftariga yopishtiriladi.

Yelim va qaychidan foydalanish texnikasi eslatiladi.



#### **V. O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsdagi faolligiga qarab o`quvchilar baholanadi.**



## VI. Uyga vazifa berish va darsni yakunlash.





**5.** Shakllar asosida ifodalar tuzib, hisoblaymiz.



$$\square + \square = \square$$

$$\square + \square = \square$$



Uyga vazifa tushuntiriladi.

Qo`shiluvchilarning xona hadlari yanada bir bor bolajonlarga uqtiriladi.O`ntalik kataklar soni sanaladi, so`ngra esa birlar xonasi sanaladi.